

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.S.Shodiyeva	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini	424
M.G'.Ismoilov	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
N.X.Raxmankulova	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati	433
M.Saminjonov	
Rasmiy-siyosiy qasamlar	439
A.A.Hakimov	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi	444
Sh.T.Abbosova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati	448
A.A.Parmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'rni va ahamiyati.....	451
S.M.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	456
S.M.Ro'zimurodov	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni.....	460
M.A.Мирзарахимов	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili	467
J.Xamroqulov	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
N.O.Yunusaliyeva	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
N.I.Suleymanova	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati	481
Y.V.Lutfullina	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahamiyati.....	486
J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish	490
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida	497
S.A.Sharipova	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida.....	500
K.И.Марайимова	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
B.B.Djalalov, K.P.Uzakov	
Ta'limning uzluksizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida.....	512
M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov	
Ayrim geteroatomli aldehydlarni $Inbr_3/Et_3n/Et_2o$ katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
A.Sh.Raximov	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

IJTIMOY FAN DARSLARIDA ABU ALI IBN SINO YOZGAN FALSAFIY QISSALARIDAN FOYDALANISHNING TARBIVAVIY AHAMIYATI**ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИЛОСОФСКИХ РАССКАЗОВ АБУ АЛИ ИБН СИНА НА УРОКАХ ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК****EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF USING ABU ALI IBN SINA'S PHILOSOPHICAL STORIES IN SOCIAL SCIENCE LESSONS****Suleymanova Nodira Inomovna¹**¹Qo'qon davlat pedagogika instituti, Amaliy psixologiya kafedrasida o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ibn Sino jahonda, avvalo, buyuk tabib sifatida dong taratgani bilan birga olimlar naznida faylasuf sifati ham alohida hurmatlidir. U insonlarni fan va madaniyat, bilim va ma'rifat o'chog'ini yoqishga, ilmiy yo'lda og'ishmay kamolot hosil qilishga, har bir masalaga ilmiy, aqliy yondashishga, rostg'o'y, vijdonli bo'lishga chaqiradi. Ibn Sino yirik mutafakkir bo'lgani uchun uning dunyoqarashi va ilg'or g'oyalari faqat uning tabiiy fanlarga oid bo'lgan asarlaridagina ifodalangan bo'lmay, balki she'r va qissalarda ham o'z aksini topgani maqolada yoritilgan.

Аннотация

Авиценна в первую очередь, знаменит как великий лекарь, кроме того он ещё был популярен среди учёных как философ. Он призывал людей к науке, культуре, просвещению, учил сознательно решать вопросы с точки зрения честности и справедливости. В данной статье рассмотрены передовые идеи Авиценны, выраженные не только в его произведениях, посвящённых развитию естественных наук, но и также встречающиеся в его стихах и коротких рассказах.

Abstract

Avizenna in the first place, well-known as a great healer, moreover he was still popular among scientists as a philosopher. He urged people to science, culture and education, he still taught the people to consciously solve different types of questions in terms of fairness and justice.

This article describes Avizenna's advanced ideas not only expressed in his works devoted to the development of natural sciences, but also found in his poems and short stories.

Kalit so'zlar: o'zbek madaniy merosi, insoniylik, mutafakkir, dunyoviy ilm-fan, umummilliy an'ana, "Solomon va Ibsol" qissasi, "Yusuf" qissasi, ikki yoritqich (quyosh va oy), "nafs" haqida, kamolotga aqlning yaqin bo'lishi, yomon xulqlari natijasi.

Ключевые слова: узбекское национальное наследие, гуманность, мыслитель, светские науки, общенациональная традиция, повесть "Соломон и Ибсол", повесть "Юсуф", два светила (солнце и луна), страсть, близость ума к совершенству, последствия плохого поведения.

Key words: uzbek national heritage, humanity, philosophers, secular sciences, national tradition, the story of "Solomon and Ibsol", the story of "Yusuf," two luminaries (sun and moon), passion, closeness of mind to perfection, bad behavior.

KIRISH

Buyuk qomusshunos Abu Ali ibn Sinoning ijodiy faoliyati o'zbek madaniy merosida o'zining juda xilma-xilligi va rang-barangligi bilan alohida o'rin tutadi. Alloma o'z davridagi mavjud bo'lgan barcha ilm sohalarida salmoqli iz qoldirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida ta'kidlaganidek "Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda"[1, c. 14].

Ibn Sino jahonda, avvalo, buyuk tabib sifatida dong taratgani bilan birga olimlar naznida faylasuf sifati ham alohida hurmatlidir. Uning amaliy jihatdan zarur bo'lgan tibbiy asarlari olim nomini dastlab butun dunyoga taratdi va o'z nomini mangu qilgan muhladi. Ibn Sino o'z davrning buyuk mutafakkiri, keyingi asrlar fani, adabiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsata olgan buyuk siymo edi. Uning aniq fan sohalaridagi asarlari hamda falsafa va adabiyot bobidagi katta xizmatlari haqli ravishda uni jahon fani va madaniyatining ajoyib bir namoyondasi deyishga huquq beradi[4, c. 5].

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Ibn Sino ma'rifatparvar shoir edi. U insonlarni fan va madaniyat, bilim va ma'rifat o'chog'ini yoqishga, ilmiy yo'lda og'ishmay kamolot hosil qilishga, har bir masalaga ilmiy, aqliy yondashishga, rostgo'yo, vijdonli bo'lishga xullas, insoniylikning eng oliy hislatlarini o'zida aks ettirib, mujassamlashtirishga va inson degan ulug' nomni yanada yuqori ko'tarishga chaqiradi. Ibn Sino yirik mutafakkir bo'lgani uchun uning dunyoqarashi va ilg'or g'oyalari faqat uning tabiiy fanlarga oid bo'lgan asarlaridagina ifodalangan bo'lmay, balki she'r va qissalarda ham o'z aksini topgan. Uning adabiy asarlarida ham insonparvarlik, rostgo'yolik, mehr-muhabbat, bir-birovni hurmat qilish, do'stlik kabi bir qator masalalar qamrab olingan[4, c. 6-7].

Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan va ularga oid asarlar yaratgan[3, c. 5].

AMALIY NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Ibn Sino o'rta asr fanining turli sohalari – falsafa, tibbiyot, tabiatshunoslik, badiiy adabiyot bo'yicha yozgan asarlari bilan madaniyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi, uning rivojiga katta hissa qo'shdi, o'z davrida "Shayx-urrays" (Olimlar raisi) unvoni bilan taqdirlandi.

Ibn Sinoning o'z davridagi yirik olimlar, jumladan, Abu Rayhon Beruniy bilan bo'lgan ilmiy munozaralari[3, c. 4] hamda unga bildirgan fikrlari qanchalik mutafakkirning o'z davrining yirik ulomosi ekanligidan dalolat beradi.

Abu Rayhon Beruniy mutafakkir haqida "Ibn Sino hammadan burun faylasuf, kimyo, al-jabr, tabiat ilmidan ham xabardor, ilmning ko'p qirralariga oid yozgan risolalari qo'ldan-qo'llarga o'tib yurur, tabobat sohasida hozir uning oldig'a tushadurg'oni yo'qdur..." [5, c. 115] -degan fikrni bildirgani bejiz emas.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ta'biri bilan aytilganda "... bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni, ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor"[2, c. 43].

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik sifatida A.Muhammadjonov muallifligida 7-sinflar uchun mo'ljallangan "O'zbekiston tarixi" kitobining IV asrdan XVI asr boshlarigacha qamrab olingan davr kesimida "Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX–XIII asr boshlari)" mavzusida batafsil, "Ilm-fan ravnaqi", "Madaniy hayot" mavzularida esa qisman o'quvchilarga Abu Ali Ibn Sino haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

Shuni e'tiborga olib, qo'shimcha ravishda tarix darslari sifatini yanada oshirish maqsadida:

- ekskursiya soatlarini to'liq bajarilishini qat'iy nazoratga olib, muzeylarda o'quvchilar bilan ishlash jarayonini kuchaytirish;

- uy vazifasi topshirig'i bandiga o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan qo'shimcha adabiyotlardan ma'lumotlarni topib, o'quvchilarga individual o'rganish mas'uliyatini yuklash hamda vazifani sinchiklab tekshirib olish;

- yuqorida keltirilgan mavzular umumiy o'rta ta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari tomonidan o'tiladigan ochiq darslarda tanlab olinib, pedagog tomonidan yuqori darajada keng yoritish;

- qomusiy olim hayoti va ijodiga bag'ishlangan ta'sirchan multimedia materiallarini sonini yanada oshirish;

- Abu Ali Ibn Sinoning tavallud sanasini boshqa buyuk allomalar (Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur) singari alohida e'tibor bilan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar asosida o'tkazish;

- davlat ta'lim standartlari talabiga muvofiq, oldindan o'quvchilarni xabardor qilgan holda alloma hayoti va ijodiga oid qo'shimcha ma'lumotlardan saralanib olingan nazorat savollari yoki testlarini olinadigan nazorat ishlari topshiriqlari qatoriga kiritish;

- allomaning boy merosi xalqimiz hamda dunyo tamadduniga qo'shgan ulkan hissasini to'laqonli o'rganish masalalariga yanada e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur keltirilgan ma'lumotlar 7-sinflar uchun mo'ljallangan "O'zbekiston tarixi" darsligidagi mavzularni yoritishda o'quvchilarning buyuk allomaning hayoti, ijodiy yo'li, falsafiy qarashlari va Ibn Sinoga bildirilgan o'z zamonasining yirik allomalari fikri hamda bugungi kun nuqtayi nazari bilan

keltirilgan manbalar haqidagi bilim va ko'nikmalarini yanada ko'proq egallash imkoniyati darajasi ortib borishiga xizmat qiladi.

Ibn Sino oddiy musulmon sifatida xudo borligiga ishonardi. Chunki uning bunday bo'lmasligi ham mumkin emas edi. Biroq uning tezisi tamoman ma'rifat tomoniga qaratilgan edi, u masalaga tor qaramaydi; har bir sohaga chuqur, atroflicha yondashadi. Dunyoda odamlarning ishi faqat toat-ibodat qilish, ro'za tutish va qur'on o'qishdan iborat, deb bilmaydi. Olim fan va ma'rifat bayrog'ini yuqori ko'tarib chiqqan peshqadam mutafakkir edi. U haqiqiy musulmon mavjud bilimlarni egallasa, o'shandagina u haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushunadi. Shu sababdan ham ko'p din peshvolari Ibn Sinoni kofirga chiqarib qo'yadilar, hatto uni qur'onga nazira yozgan, deb ham ayblaydilar. Lekin Ibn Sino ularga qarshi g'azab bilan otashin satrlar yozadi:

Mening kufirim ayblarg'a dilimdan o'zga sulton yo'q,
Bu olamda mening pokiza imonimdek imon yo'q.
Musulmonlikda men ahli zamon ichra edim tanho,
Agar kofir esam men ham, bu dunyoda musulmon yo'q.

Kelajak avlod tarbiyasi har bir jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Hozirgi kunning asosiy talablaridan biri yoshlar ongini egallab olayotgan vertual olam va "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashishning ijobiy hamda samarali yo'llaridan biri ajdodlar merosini yanada chuqurroq o'rganish va uni yosh avlodga o'rgatish zarurligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Ibn Sino yaxshilikka olib boruvchi axloq qoidalarini egallash, insonning axloqiy munosabatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi tadbirlar orqali ta'lim tarbiyani izchil amalga oshirish mumkinligini alohida qayd qiladi. Ibn Sino yosh bolalarni tug'ilgandan boshlab tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor beradi. Bola tug'ilgandan boshlab oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borish lozim. Bola o'spirinlikka o'tish davri tarbiyasi haqida alohida to'xtalib, bu davrda ularda xulq atvor shakllanadi. Bola xulq atvorining bir xil muvozanatda bo'lishi uchun uni keskin g'azablanishdan, qattiq qo'rquvdan va uyqusizlikdan saqlash zarur. Ibn Sinoning yozishicha, insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri – o'zining yomon axloqiy hislatlarini anglab, ularni yo'qotishga intilishdir. Shuningdek uning axloqiy qarashlari go'zallik, nafosat haqidagi fikrlari bilan hamohangdir.

Qomusiy olimning ijodida yaratilgan qissalarida kichik hajmli lekin keng ma'noli, axloqiy, tarbiyaviy, estetik insoniy hislatlarga ega bo'lish uchun zarur adabiy ko'rsatmalarni ko'rishimiz mumkin.

“Solomon va Ibsol” qissasi. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot ilmiga oid asarlari Sharq va G'arb olimlariga ma'lum bo'lsa ham, lekin “Salomon va Ibsol” bilan “Yusuf” qissasi to'keyingi vaqtlargacha ko'pchilik olimlarga deyarlik ma'lum bo'lmay keldi.

“Yusuf” qissasi bilan “Salomon va Ibsol” qissalariniig bir-birlariga mazmunan bog'liqligi Ibn Sinoning “Hutbayi tasliya”sini tashkil qilishga olib kelgan edi va natijada ikkalasi bir asar sifatida bir xil sarguzashtga duchor bo'lgan edi.

“Salomon va Ibsol” qissasida keltirilgan obrazlar masalan, Salomon bir inson bo'lsa, Ibsol shu insonning ma'rifiy, ruhiy darajasi. Ibn Sino Ibsol obrazida berilgan hislatlarni insonlarda ko'rmoqchi bo'ladi, shunga odamlarni da'vat qilib, uni ulug'laydi. Insonning tabiatida bo'ladigan shahvoniy hislari Salomonning xotini obrazi orqali beriladi. Bunda guyo istak, ya'ni xotin aqlini (ya'ni Ibsolni) egallamoqchi bo'ladi. Lekin aql unga buysunmaydi. Shu jihatdan ham alloma Nasiruddin Tusiy Ibsolning xotindan o'zini olib qochishi, aqlning o'z olamiga tortishidir, deydi. “Salomonning xotini,- deydi Tusiy yana,- nafs bilan birlashib ketib, bir shaxsga aylangan, istak va g'azabga tortadigan badan quvvatlariga o'xshatmadir. Xotinning Ibsolga bo'lgan ishini esa uning boshqa qchuvvatlarini egallagandek, aqlini ham egallashga bo'lgan intilishiga o'xshatmadir”.

Xullas, Ibn Sinoning bu asari o'rta asrdan qolgan adabiy yodgorliklarning bir namunasidir.

“Yusuf” qissasi. Abu Ali ibn Sinoning bu asari hajm jihatidan kichik bo'lishiga qaramay, bu to'g'rida dastlab asar yozganligi bilan diqqatga sazovordir. To'g'ri, bu qissaning asl syujeti qur'ondan olinganligiga hech shak-shubha yo'q. Lekin Ibn Sino bu qissani yozishida qur'ondagi keltirilgan naql bilan kanoat hosil qilmagan ko'rinadi. Chunki asarning uslubi, iboralarning og'ir-yengilligiga qaraganda, u ham qur'onnamo jumlarlar tuzishga urinib, unga taqlid qilganligi sezilib turadi.

Ma'lumki, arab adabiyotida qur'on eng fasohatli, eng go'zal uslubda yozilgan asar deb bilinadi. Tilining obrazlilik jizhatidan bu tilda yozilgan hech qaysi asar unga teng kelolmaydi, degan

naql musulmon olamida ko'pdan mashhur. Shunga qaramay, Ibn Sino bu to'g'rida ikkilanmasdan dadillik qiladi.

Yusuf haqida asar yozish uchun faqat Ibn Sino davridagina emas, balki undan keyingi davrlarda ham ko'l adib va shoirlar qalam urganlar. Bu to'g'rida ertaklar tuqildi, afsonalar yaratildi, dostonlar yozildi. Ibn Sino esa bu adabiy asarlarni guyo boshlab bergan, bu to'g'rida asar yozish mumkin, degan fikrni o'rtaga tashlaganday, keyingi davrdagi adib-shoirlarning asar yozishlariga undaganday bo'ldi.

Ibn Sinoning "Yusuf" qissasi syujetiga kelsak, u Sharqda ko'pdan beri xalq o'rtasida tarqalgan go'zal Yusuf haqidagi rivoyatga borib taqaladi. Bunda Yusufning go'zalligi va otasi Ya'qub uni yaxshi ko'rish va ko'p vaqtini shu sevimli o'g'li bilan o'tkazib, o'zgariga kam e'tibor berganligi, bu o'rtada birodarlarning kelishmovchiligi va nihoyat shu Yusuf sabab bo'lib, otasidan ranjishlari bayon qilinadi. Ibn Sino qissasida Ya'qubning o'g'li Yusuf tush ko'rganini va unda ikki yoritqich (quyosh va oy) hamda o'n bir yorug' yulduzlar Yusufga sajda qilayotganini aytadi. Otasi Yusufga, ko'rgan tushingni hech kimga aytma, akalaring senga yomonliq qilishadi, "tangri seni paygambarlik mulkiga yetishingni bashorat kilibdi" deydi.

Yusufning birodarlari uni sayohatga olib ketishib, uni chohga tashlashadi va uning ko'ylagini qonga bo'chib, otalari oldiga, Yusufni bo'ri yeb qo'ydi, deb qonli ko'ylakni olib kelishadi. Yo'lovchilar-karvon odamlari suv umidida quduqqa chelak tashlasa, chelakdan chiroyli bola chiqadi. Shu bilan Yusuf xizmatkor sifatida karvon bilan boshqa shaharga olib ketiladi, xo'jayinning xotini unga ishqivoz bo'lib qoladi. Yusuf orqali yomon niyatiga yetmoqchi bo'ladi, ammo Yusuf qochadi, xotin uni ushlab kolganda eri kelib qoladi, xotin darhol unga tuhmat qiladi, Yusuf zindonga tushadi, u yerda bir necha yil yotib, mahbuslarning ko'rgan tushini ta'bir qila boshlaydi. Uning ta'birlari to'g'ri chiqib, ko'pchilik o'rtasida mashhur bo'ladi. Bir kun podshoning tushini hech kim ta'birlay olmay turganda, qamoqdagi ta'birchi Yusuf haqida gap aylanib qoladi. Buni podsho eshitadi, so'ng uni chaqirtiradi. Yusuf shohning sigir haqidagi tushi va bo'lajak qurg'oqchilik haqidagi ta'birini aytadi. Ta'bir ma'qul tushadi, shu bilan Yusuf katta amaldor bo'ladi, ocharchilik boshlanganda don qidirib, akalari Yusuf yashayotgan joyga - Misrga kelib qolishadi. Keyinchalik Yusuf bilan otasi diydor ko'rishadi, birodarlari qilmishlariga pushaymon qilishib, undan kechirim so'rashadi.

"Yusuf" qissasi asarida ham Ibn Sino o'zining "nafs" haqidagi qarashlarini adabiy shaklda ifodalagan ko'rinadi. O'rta asr falsafasidagi mavjud shaklda talqin qilinsa, bu yerda Ya'qub - nafsi notiq - nutqli jon, ya'ni inson. Yusuf esa uning ma'naviy tomoni. Yusufning birodarlari kishidagi tan quvvatlari ichki sezgilardir. Xotin esa kishini istak va g'azabga tortadigan hislarga o'xshatmadir. Xotinning Yusufga intilishi va unga ishq-muhabbat izhori esa istak quvvatining kishidagi ma'naviy tomonni, falsafiy ibora bilan aytsak, nazariy aqlni egallashga bo'lgan intilishidir. Yusufning zindonda yotishi g'azab kuvvatining ishga tushib o'zini ko'rsatganidir. Yusufning xotindan o'zini tiyishi va uning mayliga ko'nmasligi esa aqlning o'z olamiga tortishi va istak, g'azab hislariga berilmaslikka bo'lgan intilishidir. Ya'qubning Yusufdan ajrab azob chekishida nafsi notiqaning aqlidan uzoqlashib, iztirobga tushishi nazarda tutiladi. Yusufning vazirlik va taxtga o'tirishi oliy kamolatga erishishi va o'sha kamolatga aqlning yaqin bo'lishidir[4, c. 18].

Yusuf birodarlarining qilmishlari ichki hislarning xatti-harakatlari va o'sha birodarlarning o'z ishlaridan hijolatlari bilan muallif aql kuvvatlari-ichki sezgining noo'rin ishlarini aytmoqchi bo'ladi.

Yusuf birodarlarining qilmishlari ichki hislarning hatti-harakatlari va o'sha birodarlarning o'z ishlaridan hijolatlari bilan muallif aql kuvvatlari - ichki sezgining noo'rin ishlarini aytmoqchi bo'ladi.

Yusufning tushida ikki yoritqich - quyosh va oyni ko'rish - uning ota-onasi, o'n bir yulduz ko'rish - birodarlari, yoritqich va yulduzlarning sajda qilishida esa kelajakda ularning Yusufga muhtoj bo'lishi tasvirlangan.

Bu xil ta'rif Ibn Sinoning "Yusuf" qissasi mazmuniga to'g'ri keladi. Falsafiy nuqtayi nazardan qaraganimizda qissa sharhi shunday.

Ammo bu qissa adabiy asardir. Shu jihatdan ham muallif uni qissa deb atagan.

Ibn Sino bunda Yusufni oriyatli, nomusli, sof yigit sifatida keltirgan. U hech qanday tuyg'ularga berilmaydi, go'zalliklarga parvo qilmaydi, o'zning tutib olgan, har bir narsada o'ziga tasalli bera oladi, noma'qulchilik yo'llariga kirmaydi, o'ziga yomonlik qilgan birodarlaridan qasd

olmaydi, ularning barcha kirdikorlariga dunyodagi oddiy voqeya, kishilarning yomon xulqlari natijasi, deb qaraydi, yomonlik qilganlarning o'zi oxir-oqibatda hijolat chekishlariga ishonadi.

To'g'ri, bu qissa va risolalar falsafiy yo'sinda, o'z davri - o'rta asrga xos uslub bilan yozilgan. Bularni tushunish har kimga darrovgina muyassar bo'lavermaydi. Bulardan ba'zisi diniy shaklda (masalan, "Risalat al-qadr") yoki qur'onda bor mavzu asosida yozilgan (bunga "Yusuf" qissasini misol keltirish mumkin). Ammo bu asarlar qaysi shakl, qobiqda yozilishidan qat'iy nazar, adibning asl maqsadi, uning g'oyaviy nuqtayi nazaridan olib qaralsa, o'z davrida uning adabiy yo'sinda ish yuritganini ko'ramiz, bu esa muallifning oldinga qarab tashlagan yana bir ulkan bir qadami edi.

Professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

XULOSA

Pedagogika fanidan ma'lumki, bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiy tendensiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning uchun kasbiy-pedagogik ta'lim chet el tajribalarini o'rganish, uni ilmiy tushunish, ilg'or g'oyalardan milliy ta'lim amaliyotida foydalanish ayniqsa dolzarb hisobga olib, ajdodlarimizning boy merosini yanada chuqurroq o'rganish, tahlil qilish, kerakli xulosalar chiqarish, bugungi kun talablariga muvofiqlashtirish hamda mazkur bilimlarni amaliyotda keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Bugun yoshlarimizga fan-texnika yutuqlaridan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va chet tillarini o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi. Fan-texnika taraqqiyotidan, uning imkoniyatlaridan foydalangan yaxshi, albatta, lekin shuni ham alohida aytib o'tish joizki, biz telekommunikasiya, internet tarmoqlari orqali yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan axborotlar, har xil lavhalar, kuy-qo'shiqlar, videotasvirlar ayrim yoshlarimizning ma'naviy-axloqiy dunyosiga zarar yetkazayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Bu bizdan yoshlarimizga bunday shart-sharoitlardan oqilona foydalanish, insoniy fazilatlar egasi bo'lish, shaxs sifatida ijtimoiy hayotning munosib vakili bo'lishdek sharafli vazifani ado etish mas'uliyatini, vatanparvarlik, halollik, axloqan yetuklik hissini singdirish sohasidagi ishlarimizni yanada kuchaytirishimizni talab qiladi. Bu borada yuqorida keltirilgan ma'lumot va manbalarda o'z ifodasini topgan deb hisoblash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008.
3. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
4. Abu Ali ibn Sino. Solomon va Ibsol. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
5. Qoriyev M. Tanlangan asarlar. Ibn Sino II jild. – T.: "Sharq", 2000.